



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/2 (11)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмуратов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурманова** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Умирзаков Bakhodir Khamidovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Azamat Khamidovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli** – доктор психологических наук.

**Turakulov Ulugbek Holbutayevich** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanova** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

### МЕЖДУНАРОДНАЯ

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Иосифовна,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

### INTERNATIONAL EDITORIAL

### BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*SOTSILOGIYA*

<b>Saydivalieva X.X., Kadirova T.J.</b> Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari .....	4
<b>Myсаева М.И.</b> Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
<b>Inoyatova S.J.</b> Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari .....	17
<b>Ilxamova Z.</b> O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroti .....	24
<b>Zokirov S., Xusanova S.</b> O'zbekistonda ta'lif davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Hojiyev R.B.</b> Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
<b>Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I.</b> Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri .....	40
<b>Abdibositov A.</b> Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar .....	46
<b>Muhittdinova D.</b> Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish .....	51

*PSIXOLOGIYA*

<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	56
<b>Xusanov S.</b> "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'r ganilishi .....	63
<b>Аскарова Г., Каримова Н.</b> Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи .....	68
<b>Nomozova R.O.</b> Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari .....	75
<b>Imonova M.B.</b> O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
<b>G'ulomqodirov E.A.</b> Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini .....	85

*PEDAGOGIKA*

<b>Qurbanova B.N.</b> Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish .....	91
---	----

*DEMOGRAFIYA*

<b>Dusnayev Sh.E.</b> O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili .....	96
--	----

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

<b>Rabiiev B.B.</b> Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



**Muhitdinova Dildora,**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti  
mustaqil tadqiqotchisi

# HUQUQIY MADANIYAT YETISHMASLIGI SABABLI KELIB CHIQADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlikning kelib chiqish sabablaridan biri huquqiy madaniyat yetishmasligi ekani maqolaning asosini tashkil qiladi. Muammolarni bartaraf qilishning asoslaridan biri aholi ongida huquqiy madaniyat tushunchasini tarbiyalashdir. Maqolada bu muammoning oqibatlari ko'rsatiladi. Muammoni hal etish uchun qator tavsiyalar taklif qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** huquqiy madaniyat, Yangi O'zbekiston, qadriyatlar, pedagogika, ta'lim muassasalari, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, matbuot, axborot, targ'ibot.

**Аннотация.** В основе статьи лежит то, что одной из причин семейного насилия в новом Узбекистане является отсутствие правовой культуры. Одной из основ решения проблем является воспитание в сознании населения понятия правовой культуры. В статье показаны последствия данной проблемы. Предлагается ряд рекомендаций по решению проблемы.

**Ключевые слова:** правовая культура, Новый Узбекистан, ценности, педагогика, образовательные учреждения, детское образование, социально-экономические изменения, пресса, информация, пропаганда.

**Annotation.** The basis of the article is that one of the causes of family violence in new Uzbekistan is the lack of legal culture. One of the foundations of solving problems is to educate the concept of legal culture in the minds of the population. The article shows the consequences of this problem. A number of recommendations are offered to solve the problem.

**Key words:** legal culture, New Uzbekistan, values, pedagogy, educational institutions, children's education, socio-economic changes, press, information, propaganda.

**Kirish.** Huquqiy madaniyat umumiy bilim darajasi, jamiyatning huquqqa xolis munosabati, hayot jarayonida yaratilgan me'yorlar, e'tiqod va munosabatlar shaklidagi huquqiy bilimlar majmuyidir. Bugungi kunda jamiyatdagi insonlarning huquqiy madaniyat darajasi ularning har tomonlama rivojlanishi va turmush tarzining sifatiga sezilarli ravishda ta'sir etadi. Shu jihatdan

huquqiy madaniyat insoniyat hayotida juda muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, dunyo hamjamiyati, jumladan, Yangi O'zbekiston davlati oldiga qator vazifalarni qo'yadi.

Huquqiy madaniyat – jamiyatning huquqqa nisbatan umumiy bilim darajasi va xolis munosabati; hayot va faoliyat jarayonida yaratilgan normalar, e'tiqodlar va munosabatlar shaklidagi huquqiy

bilimlar yig‘indisi. U ishda, muloqotda va subyektlarning o‘zaro ta’siridagi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Zamonaviy pedagogika huquqiy madaniyat tarbiyasini shaxs qadriyatlarining ma’naviy, axloqiy va huquqiy tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli huquqiy ta’sir sifatida belgilaydi. Bu ta’sir davlat, jamiyat tashkilotlari va alohida fuqarolarning yuridik tajriba faoliyati orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiya jarayonida shaxsning ong va xulq-atvoriga qonunga nisbatan ijobjiy qarashlar, munosabat va g‘oyalarni shakllantirish, unga rioya qilish, bajarish va undan foydalanish imkonini beradigan tizimli ta’sir ko‘rsatiladi. Huquqiy madaniyat tarbiyasi huquqiy ta’lim orqali amalga oshiriladi.

Huquqiy ta’lim qonunlarga rioya qilish va huquqbazarliklarning oldini olish zarurligiga ishonch hosil qilish uchun jamiyatda qonunlar, normalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tushuntirishlar berish, shuningdek, ularni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi bilimlarni tarqatishdir<sup>2</sup>.

Huquqiy ta’lim aholi o‘rtasida huquqiy bilimlarni tarqatish jarayoni bo‘lib, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, qonunga, adolatga va qonunchilikka nisbatan hurmat bilan qarashga o‘rgatadi<sup>3</sup>.

Huquqiy ta’lim huquqiy madaniyat tarbiyasining birlamchi targ‘ibot shaklidir. U shaxsning huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasi faolligini oshirishga xizmat qiladi – shaxsning huquqiy xulq-atvori yuqori bosqichga ko‘taradi. Subyektni ongli ravishda huquqqa asoslangan holda maqsadli harakat qilishga undaydi. Huquqiy ta’limga ega bo‘lgan shaxsning harakatlari huquqiy normalarni, huquq-tartibotni, qonuniylikni saqlashga, davlat, jamiyat va boshqa fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Huquqiy madaniyatning yetishmasligi katta muammolarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda

<sup>1</sup> Гуляихин В.Н. Правовая культура как объект научного исследования: методологические подходы, структура и критерии оценки. Архивная копия от 16 октября 2013 на Wayback Machine //Юридические исследования. 2013. №4. – С. 135-158.

<sup>2</sup> Барыкина М.В.Взаимодействие органов прокуратуры с Уполномоченным по правам человека в рамках правового просвещения и правовой пропаганды//Экономика и право. XXI век. 2013.№ 1. – С. 58.

<sup>3</sup> ИванниковИ.А. Теория государства и права; учебник. – М.; Кнорус, 2014. – С. 360.

hayotimizda ro‘y beradigan muammolarning, jumladan, oiladagi zo‘ravonlik keskin darajada ko‘payib borishining sabablaridan biri aynan huquqiy madaniyatning yetishmasligi bilan bog‘liq. Shu jihatdan odamlar ongida huquqiy madaniyatni tarbiyalash muhim masalalardan biridir.

**Maqsad va uni asoslash.** Olimlar Y.N.Dmitriyenko va I.V.Dmitriyenkolarning rasmiy tadqiqotlari va nashrlarida sinovdan o‘tgan g‘oyalarga ko‘ra, huquqiy madaniyat turlari “huquqiy ongning ijtimoiy faoliyati sikllari”ning muhim va ustuvor manbalariga ega bo‘lib, ular turli arxitektonik huquqiy madaniyatni eng ommabop jihatlarda o‘rganishning shartlari va imkoniyatini oqilona izohlaydilar<sup>4</sup>.

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu insoniyat tomonidan huquq sohasida to‘plangan va ushbu jamiyatning huquqiy voqeligi bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy madaniyatning bir qismidir.

Zo‘ravonlik, xususan, oiladagi zo‘ravonlik muammosining kuchayib borishi butun dunyoda kuzatilayotgan bir vaqtda sobiq ittifoq mamlakatlarida, jumladan, bizning mamlakatimizda uning kuchayish sabablari 90-yillardagi boshboshdoqlik bilan bevosita bog‘liq. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri butun mamlakat hayotining juda ko‘p jabhalarida jiddiy salbiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga olib kelgani sir emas. Bu davrda shu vaqtgacha bir tekis kelgan turmush tarzining keskin o‘zgarib ketishi, parokandalik, ishsizlik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siniqishlar odamlar hayoti va qarashlarida jiddiy o‘zgarishlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Aholi o‘rtasidagi diniy va dunyoviy qarashlardagi o‘zgarishlar, yangicha fikrlash, yangi-yangi kasb-korlarning paydo bo‘lishi, mavjud tizimning yo‘q bo‘lishi, yangisining qad rostlashi va hokazolarning odamlar ruhiyatiga ta’siri jamiyat va oiladagi notinch muhitning kuchayishiga yanada kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ma’lum vaqt oralig‘ida hukm surgan mavhumlik odamlarni esankiratib qo‘ydi. Bu vaqtda maktabda tarbiya sistemasi izdan chiqdi. Ta’lim-tarbiya muassasalarida xulq-atvori og‘ir bolalar bilan shug‘ullanuvchi, o‘zlashtirolmaydigan o‘quvchilar bilan qo‘srimcha mashg‘ulotlar olib boruvchi tizim barbob bo‘ldi. Innovatsion texnologiyalar bilan band bo‘lib qolgan umumta’lim muassasalaridagi ta’lim, tarbiya va rivojlantirishni o‘z ichiga olgan o‘qitish

<sup>4</sup> Дмитриенко Ю.Н. Подходы к изучению украинского соционического правового сознания культуры. 2011.

jarayoni faqat umumiy fan ta'limini uzatish bilan cheklanib qoldi. Bozor iqtisodiyotiga mo'ljallangan bir tomonlama kasbkorlik ilmi bilan cheklanila boshlandi. Axloqiy tarbiya, fuqarolik, huquqiy madaniyat qadriyatlari ikkinchi darajaga o'tib qoldi. Biroq pedagog-psixologlar, bu borada izlanish olib boruvchilar muammoning bu tomonlariga jiddiy e'tibor qaratmadilar. Uyda esa ota-onalar o'zlarining tang ahvoli bilan ovora bo'lib, bola tarbiyasi bilan shug'ullanish mas'uliyatini bo'shashtirib qo'ydilar. Ota-onas vazifasi, asosan, moddiy qiyinchiliklarni yengishga qaratildi. Ularning mas'uliyati farzandlarining moddiy ehtiyojlarini qondirish bilangina cheklanib qoldi. Vaholonki, qadimgi va o'rta davrlarda oiladagi tarbiya bo'ladimi, o'quv sistemasining tizimi bo'ladimi, ularning asosida ilm berish bilan bir qatorda falsafiy-diniy, huquqiy va axloqiy tarbiya doimo birinchi o'rinda bo'lgan (Y.Shpringer, G.Institoris, Foma Akviant, N.Makkiavelli, I.Kant, F.Gegel).

Insonlar hayotida tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, huquqiy tarbiya mushtarakligi, ularning ilmiy ta'lim bilan bir qatorda olib borilishi zo'ravonlikning o'z-o'zidan barham topishiga asos bo'luvchi yagona negiz hisoblanadi. Pedagogikaning asosi bolaning erkin rivojlanishida tabiiy muvofiqlik, madaniy muvofiqlik tamoyillaridan iboratdir (Y.A.Komenskiy, I.G.Pestolotssi, J.Russo).

O'quv ta'limida o'quvchilarining huquqiy madaniyatini tarbiyalash, birinchidan, maktabdagi zo'ravonlikning oldini olishga yordam bersa, ikkinchidan, ularni kelajakdagi katta hayot yo'lida zo'ravonliklarga qarshi turib bera olishlariga va o'zlar zo'ravonlik qilmasliklariga zamin hozirlaydi. Zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishda pedagogik ta'limning samarasi: huquqiy madaniyatni tarbiyalash, uning ijtimoiy holatini tashxislash, tarbiyalanuvchilarining yoshini hisobga olgan holda maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish muhimligidadir.

Masalaning muammoli tomoni aholi o'rtasida huquqiy madaniyatning yetishmasligi qator muammolarni keltirib chiqarishidadir:

- maktabdagi zo'ravonlik;
- oiladagi zo'ravonlik;
- jamiyatdagi zo'ravonlik;
- ayollarga nisbatan zo'ravonlik;
- keksalarga nisbatan zo'ravonlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz fuqarolarining huquqiy madaniyatini nafaqat oliy, hattoki o'rtacha darajada deb bo'lmaydi. Huquqiy ongning oqsashi esa aynan ana shu huquqiy madaniyatning yetishmasligi bilan belgilanadi. Huquqiy madaniy bilimni yuqori darajaga ko'tarishda juda aniq ishlangan dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Uni ommaviy axborot vositalarida puxta o'ylangan huquqiy targ'ibot, qonunchilik bazasidan keng foydalanish, fuqarolarni qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga jalb etishning samarali shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ijobji natijaga erishish mumkin.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Huquqiy madaniyatni singdirish hayotning barcha jabhalarida, aholining har qanday qatlami orasida keng tarqatilishi ayni muddao. Bu ishni amalga oshirish jarayonida qator holatlarga e'tibor qaratish, ayniqsa, o'quv ta'limida maqsadga muvofiq bo'adi. Bunda:

- maktab o'quvchilarining huquqiy madaniyatini qay darajada ekanini aniqlash;
- zo'ravonlik, maktabdagi zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlik haqidagi tushuncha borasida pedagogik tashxis olib borish;
- huquqiy madaniyat tarbiyasi orqali maktabdagi zo'ravonlikka qarshi kurashishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish;
- huquqiy madaniyat tarbiyasi orqali zo'ravonlikka qarshi kurash amaliyotining pedagogik shartlarini asoslab berish juda muhim.

Huquqiy-targ'ibot to'g'risidagi bilimlarni tarqatish uchun davlatimiz o'z ixtiyorida bo'lgan barcha vositalardan keng foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular: adabiyot, san'at, maktab, diniy muassasalar, matbuot, radio, televideniye, maxsus yuridik muassasalar.

Ma'lumki, adabiyot va san'at barcha davrlarda, har qanday jamiyatda ommani, xalqni boshqarishda juda katta kuchga ega bo'lgan. Adabiyot va san'at ahllarining asarlarida tarannum etilgan mavzular odamlarga juda tez va jo'n yetib borishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu nuqtayi nazardan yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, rejissiyorlar, xonandalar omma orasida huquqiy madaniyatni to'g'ri targ'ib qilishda muhim o'rinni egallaydilar.

Jamiyatning huquqiy madaniyati darajasini oshirishda ommaviy axborot vositalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy

hayotda OAV odamlarning ongiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jurnalistlar huquqiy madaniyatining pastligi, huquqiy ongingin shakllanmaganligi va deformatsiyalanganligi sezilib qoladi. Ko'pgina nashr va chiqishlar ommaviy axborot vositalari antikulturasining turli ko'rinishlarini ochib beradi.

Matbuot, radioda e'lon qilinadigan eshittirishlar, intervylar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maorify maqlolalar, tanqidiy chiqishlar, ko'ngilochar dasturlar va televideniye orqali beriladigan turli dastur va ko'rsatuvalar ommaning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishda yaxshigina dasturulamal bo'ladi. Shu soha vakillari, jurnalistlar, boshlovchilar, suxandonlar, ko'rsatuvalor mualliflari mas'uliyatini, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish omma o'rtasida ijobiy o'zgarishlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

Har bir shaxsning rivojlanishida maqsadli ta'sir ko'rsatishning asosiy elementi huquqiy ta'limdir. U maktabdan boshlanishi va butun umr davom ettirilishi shart. Maktab va boshqa o'quv muassasalarida beriladigan ta'lim dunyoviy bilimlar bilan birga huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyani o'z ichiga olishi hamda o'quvchi va talabalarga singdirib borilishi juda muhim. Yoshlarning huquqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyatiga e'tibor qaratish zarurati bugungi kunning asosiy shartidir. Zero, Yangi O'zbekistonning kelajagi yoshlarning qay darajada ilmli va tarbiyali bo'lishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunida "tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon"<sup>5</sup>, deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish choratadbirlari to'g'risida"gi Qonunida "Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish", "Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikengli

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги Конуни.1-боб, 3-модда. Асосий тушунчалар. Конунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул килинган. Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъкулланган.

va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash", "O'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash" chora-tadbirlari belgilab berilgan<sup>6</sup>. Bu qaydlar mavjud muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish yo'lidagi jiddiy qadam bo'lib, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiqdir.

O'cta va oliv o'quv ta'lim orqali yoshlarning ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur choratadbirlarning ko'riliши jamiyat kelajagining rivoji uchun bosiladigan muhim qadam bo'lib hisoblanar ekan, yoshlar orasida huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy madaniyatning rivojlanishi borasidagi dasturlarning zamonaviy uslub va texnikasi ishlab chiqilishi nihoyatda zarur. O'quv dasturlarida ushbu yo'nalish soatlarining ko'paytirilishi, amaliy va nazariy bilimlarga keng o'rin ajratilishi, yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarining keng ko'lamda olib borilishi, tajriba almashish, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassis – pedagog va tarbiyachilar bilimi sifatining oliv darajaga ega bo'lishi, albatta, katta samara beradi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni jamiyatning katta yoshdagi fuqarolari o'rtasida rivojlanirish juda muhim va shu bilan birga, ancha mushkul. Bu borada jamiyatimiz a'zolari orasida umumiy tushunchaning ancha pastligi inkor etib bo'lmas faktdir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi jamiyat a'zolarining barcha qatlamlarini qamrab olgan. Buning sababi eskilik sarqitlarining saqlanib kelayotgani, yangicha qarash va yangicha an'analarni o'zlashtirmaslik, ayollar va erkaklar o'rtasidagi diskriminatsiyaning mavjudligi, milliy an'analarni noto'g'ri talqin qilish, kelishuv va bag'rikenglik bilan ish tuta olmaslik, odamlarning bir-birlariga bo'lgan ishonchszligi, o'zgalar xohish-istiklarini hurmat qilmaslik yoki o'ta darajada atrofdagilarning fikriga qul bo'lib qolish va boshqalar. Bularning bari inson huquqlari poymol bo'lishiga, qonunga xilof ravishda ish tutishga, konstitutsiya qonunlariga qarshi borishga, ozod yashashga qarshilik, jamiyatning jinoyatchilikka

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: 14. 08. 2018 йилдаги ПК-3907-сон. 1-илова.

qarshi qonunlarini oyoqosti qilishga olib keladi. Bu muammolarni alohida ajralgan holda hal etish mushkul. Barcha davlat, nodavlat tashkilotlari birlashgan holda ish olib borgandagina, ma'lum natijalarga erishish mumkin. Hozirgi kunning dolzarb masalasi qonunchilikni izchil targ'ibot orqali amalga oshirish va huquqiy tarbiyaviy faoliyatni qoida tariqasida aholining muayyan huquqiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalgaga oshirishdan iborat.

**Yakuniy qism.** Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat huquqiy madaniyatining holati ko'p jihatdan yuridik mutaxassislarining fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish ishlardagi ishtiroki darjasи, shuningdek, ularning o'ziga xos madaniyatи darjasи bilan belgilanadi.

Fuqarolarni huquqiy axborot bilan ta'minlash va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotchilari, yuridik maslahatchilarни jalb etgan holda faol ma'ruba

va nashriyot faoliyatini yo'lga qo'yish kerak. Bu boroda diniy muassasalarining, din peshvolarining o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Aholining ko'p qismi, aksariyat erkaklarning masjidlarda yig'ilishi va domla-imomlarning ma'ruzalaridan ruhlanishi sir emas. Bu jihatdan domla-imomlarning odamlarni huquqiy ilm va huquqiy madaniyatini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlar masalalari, oiladagi zo'ravonlik, uning kelib chiqish omillari, kuchayishi, oqibatlari va bartaraf etish yo'llarini tushuntiruvchi, ochib beruvchi, yo'naltiruvchi mavzulariga asoslangan ma'ruzalar bilan chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Muammoning ilmiy ahamiyati huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy tarbiya muammolari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish zaruratini yana bir karra isbotladi. Yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolarning huquqiy madaniyatini butun mamlakat bo'ylab va alohida hududlarda sotsiologik o'rganish nechog'lik muhim ekanligi izlanishlar davomida yaqqol namoyon bo'lib bordi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гуляихин В.Н. Правовая культура как объект научного исследования: методологические подходы, структура и критерии оценки. Архивная копия от 16 октября 2013 на Wayback Machine // Юридические исследования. 2013. №4. – С. 135-158.
2. Барыкина М.В. Взаимодействие органов прокуратуры с Уполномоченным по правам человека в рамках правового просвещения и правовой пропаганды // Экономика и право. XXI век. 2013. № 1. – С. 58.
3. Иванников И.А. Теория государства и права: учебник. – М.: Кнорус, 2014. – С. 360.
4. Дмитриенко Ю.Н. Подходы к изучению украинского соционического правового сознания культуры. 2011.
5. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.1-боб, 3-модда. Асосий тушунчалар. Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган. Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: 14.08.2018. ПК-3907-сон. 1-илова.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

## **MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia*

**x a l q a r o i l m i y j u r n a l i**

*международный научный журнал  
international academic journal*

**2024/2 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.